



# XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

## UMUMIY KIMYO FANINI MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH

**Ochilova Mahbuba Kamol qizi**

*Buxoro davlat universiteti*

*Umumiy va noorganik kimyo kafedrasи  
o'qituvchisi)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati, shuningdek, umumiy kimyo darslarida laboratoriya mashg'ulotlarni muammoli ta'lif texnologiyalar asosida tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol uslub, muammoli ta'lif, nima uchun texnologiyasi, laboratoriya mashg'uloti, o'quvchi, o'qituvchi.

Ta'lif muassalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyos. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talaba (yoki o'quvchi)larni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Dars jarayonida axborot texnologiyasi va interfaol metodlardan foydalanish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Interfaol usulning mohiyati shundaki barcha o'quvchilar bilim olish jarayoniga jalb qilinadi, ular mavzuni o'z tafakkuri, o'z bilimlarini ishga solgan holda tushunish va anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Biz umumiy kimyo darslarida laboratoriya mashg'ulotlarni muammoli ta'lif texnologiyalar asosida tashkil etishni ko'rib chiqamiz.

Anorganik va organik moddalar, ular orasidagi o'zaro bog'liqliklarni hamda ularning xossalari molekulyar tuzilishi asosida tushuntirishda grafik organayzerlar, ya'ni muammoni aniqlash va tahlil qilish vositalaridan biri «Nima uchun» sxemasidan foydalanilgan holda dars o'tish uslubiyoti yaratildi.


**«Nima uchun» sxemasi** – muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri. Tizimli, ijodiy, tahlili fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.

O'quvchilar «Nima uchun» sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. «Nima uchun» so'rog'ini berib, chizma orqali muammoning dastlabki sababi aniqlamaguncha savolga javob yozadilar. Bu jarayonda o'quvchilar kichik guruhlarga birlashadilar, o'zlarining



# XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

fikrlarni taqqoslaydilar, «Nima uchun» sxemasini to‘ldiradilar va umumiy chizmaga keltiradilar. Ish natijalari taqdimot orqali tahlil qilinadi. (1-sxema)



Akademik litseylarning kimyo ta’lim yo‘nalishida “Kislota va asoslarga xos tajribalar” laboratoriya mashg’ulotini o‘tkazishda “**Nima uchun**” texnologiyasini qo‘llash uslubiyoti yaratildi.

Laboratoriya mashg’uloti frontal tarzda ikki variantda bajariladi.

Maqsad: Kislota va asoslarning kimyoviy xossalari o‘rganishda muammoli yondashuvni tashkil etish.

Ishni boshlashdan oldin o‘quvchilar stoliga quyidagi reaktiv va laboratoriya anjomlari qo‘yiladi:

Reaktivlar: BaCl<sub>2</sub>, AgNO<sub>3</sub>, Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> eritmalari, 10% li HCl (yoki H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>) eritmasi.

Jihozlar: probirkalar, shtativ.

Laboratoriya mashg’uloti yangi mavzuni o‘rganish maqsadida tashkil qilinayotganligi sababli, o‘quvchilarga uni diqqat bilan bajarish, barcha qo‘yilgan savollarga javoblarni daftarga yozish tavsiya qilinadi.

## 1-variant

Quyidagi savollarga javob bering:

1. Nima uchun probirkada oq loyqa hosil bo‘ldi?

2. Agar shu loyqa ustiga HCl kislota qo‘silsa qanday jarayon boradi? Nima uchun?

Tajribani bajaring: Probirkaga bariy xlorid eritmasidan 2-3 ml oling va uning 2-3 tomchi sulfat kislota eritmasidan qo‘sning. Qanday o‘zgarish kuzatdingiz? Hosil bo‘lgan cho‘kma qanday ko‘rinishga ega?



# XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

Hosil bo‘lgan cho‘kmaning tarkibi nima. Nima uchun cho‘kma ustiga HCl solinganda cho‘kma erib ketdi, sababini tushuntiring. Buning uchun quyidagi reaksiya tenglamalarini yozing:

- Bariy xlorid bilan sulfat kislotaning o‘zaro reaksiya tenglamasi:  
$$(BaCl_2 + H_2SO_4 \rightarrow BaSO_4 + HCl)$$
- Bariy sulfat bilan xlorid kislotaning o‘zaro reaksiya tenglamasi yozing.  
$$(BaSO_4 + HCl \rightarrow BaCl_2 + H_2SO_4)$$

Bariy xlorid bilan sulfat kislotaning o‘zaro reaksiyada  $BaSO_4$  oq loyqa cho‘kmasi hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan bariy sulfat cho‘kmasi HCl da erib tiniq eritma hosil qiladi deb tushuntiriladi.

2-variant

Quyidagi savollarga javob bering:

- Hosil bo‘lgan cho‘kmalar rangi nima uchun har xil?
- Agar mis sulfat eritmasiga NaOH eritmasini qo‘sish davom ettirilsa qanday jarayon sodir bo‘ladi?

Tajribani bajaring: Ikkita probirkaga mis (II)-sulfat eritmasidan 4 ml dan quying. Birinchi probirkaga 4ml, ikkinchisiga esa 2ml NaOH eritmasidan qo‘sning va yaxshilab aralashtiring. Hosil bo‘lgan cho‘kmalar rangini har xilligiga e’tibor bering.

Mis sulfat eritmasiga natriy gidrooksid qo‘shilganda eitma rangining o‘zgarishini tushuntiring. Buning uchun quyidagi reaksiya tenglamalarini yozing:

- mis sulfat eritmasi bilan NaOH eritmasining o‘zaro reaksiya tenglamasi:
- NaOH eritmasining konsentrasiyasi ortishi bilan  $CuSO_4$  ning hosil bo‘lish unumi ortadi. Natijada yorqin ko‘k rang hosil bo‘ladi.

Bunday o‘zgarishlardan keyin eritmada qaysi ionlar ortiqcha miqdorda bo‘ladi: sulfat ionlarimi yoki gidrooksid ionlarimi?

O‘qituvchi o‘quvchilarning dastlabki berilgan 2 ta savolga qanday javob bergenliklarini ish davomida tekshirib boradi. Bu javoblar albatta laboratoriyada bajargan ishlari, kislotalar va tuzlarning xossalari nuqtai nazaridan berilishi lozim. O‘quvchilar mis sulfat eritmasi bilan NaOH ning o‘zaro reaksiya tenglamasini yozib  $Cu(OH)_2$  cho‘kmasini hosil bo‘lishini alohida ko‘rsatib o‘tishlari lozim.

O‘quvchilarning mis sulfat bilan natriy gidrooksidning o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir reaksiya tenglamasini qanday yozganliklarini va bu asosda qanday xulosaga kelganliklarini kuzatib borish, nazorat qilish lozim. Agarda ular tomonidan barchasi to‘g’ri bajarilgan bo‘lsa, ular kislota va asoslarning xos kimyoviy xossalari aniq tushunib oladilar.



# XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

Yuqorida bayon etilgan ish tartibini “**Nima uchun**” texnologiyasini qo‘llash orqali muammoli ta’limni qo‘llash mumkin, ya’ni dastlab o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga asosiy muammo qo‘yiladi.

Mana shu tariqa metodning boshida qo‘yilgan muammoli vaziyat bosqichma bosqish yechilib boradi. Albatta bunda o‘quvchilarning Anorganik birikmalarning muhim sinflari mavzularning nazariy bilimlariga tayangan holda amalga oshiriladi.

Muammoli o‘qitish jarayonida o‘quvchining erkin va mustaqil bo‘lish boshqaruvi reproduktiv o‘quv metodlariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo‘ladi. Muammoli o‘qitishning maqsadi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida ta’lim-tarbiya masalalari, muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo‘llari bilan birga yangi kimyoga oid bilimlarni o‘zlashtirishni, o‘quvchilar o‘quv faoliyatida muammoli dars jarayoniga oid vaziyatlar vujudga kelganda hal etish bo‘yicha o‘qituvchilar o‘z fikrlarini berib ularda qiziqish uyg’ota olishidan iborat. Akademik litseylarda kimyo ta’lim yo‘nalishi uchun Anorganik birikmalarning eng muhim sinflariga oid bo‘lgan tajribalar muhim mavzulardan biri. Amaldagi tajribalarning tabiatи (ko‘rgazmali tajriba, amaliy ish va laboratoriya tajribalari) tajribaning murakkablik darjasи va darsda olib boriladigan muammoli topshiriqning tabiatи bilan belgilanadi [2].

Ma’lumki, Anorganik birikmalarning eng muhim sinflariga oid o‘tkazilgan tajribalarning aksariyati tasvirli bo‘lib, faqat o‘rganilgan hodisalarni tasdiqlash uchun ishlataladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarga nafaqat ko‘rgazmali tajribalarni, balki muammoli xususiyatga ega bo‘lgan tajribalarni ham ko‘rsatish tavsiya etiladi, chunki ular o‘quvchilarning kognitiv faolligini faollashtirishni ta’minlaydi, mustaqil fikrashni o‘rgatadi, fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantiradi, bilimini, ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilova M.K., Ergashov M.Y. Umumiy kimyo fanidan Moodle tizimida qo‘llaniladigan testlar va ulardan foydalanish// Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti. 2018. 2-son. b.-244-248 b.
2. Saliyeva D., Dusmuxamedova Sh. Ta’lim samaradorligini oshirishda innoatsion texnologiyalardan foydalanish. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali, 2014-y, 3-son.77-80-b.
3. Ochilova M.K., Mutalipova D.B., D.A. Baxranova. The Importance and Effectiveness of the Use of Modern Pedagogical Technologies in the Educational Process // (SCOPUS) Annals of the Romanian Society for Cell Biology



# XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

annalsofrscb. Annals of R.S.C.B., -ISSN:1583-6258, Issue 1, 2021, Vol-25, Pages. 4822 – 4830, Received 15 December 2020, Accepted 05 January 2021, 4822.

4. Ochilova M.K., Ergashov M.Y., Z.K. Qodirova. Modulli ta’lim texnologiyalarini qo’llab “asoslar va tuzlarning umumiy xossalari” mavzusini o‘tish // Buxoro davlat universiteti Pedagogik mahorat-ISSN 2181-6883, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2-son, 2022 yil, -b-157-160
5. Ochilova M.K., Ergashov M.Y. Umumta’lim maktablarida kimyo fanidan “Metallar” mavzusini o‘tish bo‘yicha tavsiyalar // UzACADEMIA. Ilmiy-uslubiy jurnal. Farg’ona-ISSN(E) 2181-1334, ISSUE 4, October 2020, Vol-1, -b-10-14
6. Ochilova M.K. Akademik litsey o‘quvchilariga anorganik birikmalarning eng muhim sinflari mavzusini o‘qitishda modulli texnologiyasini joriy etish shakllari // Buxoro davlat universiteti Pedagogik mahorat-ISSN 2181-6833, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 5-son, 2022 yil, oktabr. –b: -115-120.
7. Ochilova M.K. Umumiy kimyo fanidan anorganik birikmalarning muhim sinflari mavzusini o‘qitishda muammoli vaziyat metodikasidan foydalanish // Buxoro davlat universiteti Pedagogik mahorat-ISSN 2181-6833, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 3-son, 2023 yil, aprel-b-145-151.
8. Ochilova, M. (2023). POSSIBILITIES OF USING THE MOODLE SOFTWARE SYSTEM IN TEACHING CHEMISTRY. Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education, 1(12), 84–86. Retrieved from <http://aidlix.com/index.php/us/article/view/1248>.